



## XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 16 - sentabr

VI-65-189-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholiga tez tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-283-sonli qarori ijrosi yuzasidan tuman tibbiyot birlashmasi boshlig‘ining hisoboti to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 16-iyundagi “Aholiga tez tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” PQ-283-sonli qarorining ijrosi yuzasidan tumanda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tuman tibbiyot birlashmasi boshlig‘i Sh.Odinayevning hisoboti xalq deputatlari tuman Kengashining Ta‘lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi yig‘ilishida eshitilganligini hamda deputatlar tomonidan bildirilgan takliflar va fikr-mulohazalarni inobatga olib, xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. Tuman tibbiyot birlashmasi boshlig‘i Sh.Odinayevning Shoshilinch va tez tibbiy yordam tizimini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar, mavjud muammo va kamchiliklar, ularni bartaraf etish bo‘yicha 2023-yilning o‘tgan davrida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan bergan hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

**2. Tuman hokimining o‘rinbosari (B.Xakimov), tuman tibbiyot birlashmasi (Sh.Odinayev)ga:**

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 5-maydagi “Tez tibbiy va shoshilinch yordam xizmati faoliyatini takomillashtirish”ga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida berilgan vazifa va topshiriqlar ijrosini ta‘minlash bo‘yicha tasdiqlangan chora-tadbirlar dasturida belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini nazorat qilish hamda dasturning bajarilishi yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga tegishli tartibda hisobotlar kiritib borilishini ta‘minlash;

- tuman hududi bo‘ylab aholining sog‘lom turmush tarzini yanada yaxshilash va aholi orasida tibbiy madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan tizimli ishlarning doimiy olib borilishini ta‘minlash;

- mahalla fuqarolar yig'inlari mas'ullari, patronaj hamshiralar va boshqa mutasaddilar bilan birgalikda mahallalarda "Sog'lom ona va bola - millat tayanchi", "Salomatlik - tuman boylik" kabi mavzularda davra suhbatlarini tashkil etish va o'tkazib borish vazifalari topshirilsin.

3. Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalariga tumanda tez tibbiy va shoshilinch yordam xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha dasturida belgilangan tegishli vazifalarning ijro etilishi ustidan deputatlik nazoratini o'rnatish hamda hisobotlarini eshitib borish tavsiya etilsin.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlariga tumanda tasdiqlangan dastur ijrosi yuzasidan amalga oshiriladigan ishlarni doimiy nazorat qilish va joylarda uchrayotgan dolzarb muammo va kamchiliklar hamda ularning yechimi yuzasidan tegishli mas'ullarga amaliy yordam ko'rsatib borish vazifasi topshirilsin.

#### **5. Tuman hokimligi Axborot xizmati rahbariga:**

Angor tuman tibbiyot birlashmasining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2022-yil 5-may kunda bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida tez tibbiy yordam va shoshilinch tez tibbiy yordam xizmati faoliyatini takomillashtirish masalalari bo'yicha birinchi navbatdagi vazifalarni bajarish bo'yicha dastur doirasida amalga oshirilgan ishlarni tuman hokimligi veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Yuqoridagi belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan har chorak yakuni bilan tegishli mansabdor shaxslar tomonidan xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma axborot kiritib borilsin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (M.Qodirova) zimmasiga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**Kengash raisi**



**Q.Mardonov**